



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING
Q A R O R I**

2025-yil 16-sentyabr

Nº 2055

**A.Xudaybergenovga oid intizomiy ishni
qayta ko'rib chiqish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 77-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalari hamda Sudyalar oliy kengashining 2025-yil 4-sentyabrdagi xulosasiga muvofiq Kengash

Q A R O R Q I L A D I :

1. Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining sudyasi Xudaybergenov Artur Germanovichning Toshkent shahri sudlari sudyalari malaka hay'atining 2025 yil 18-iyundagi 71/5-sonli qarori hamda Sudyalar oliy malaka hay'atining 2025 yil 21 iyuldagi OMH-8 b.m.-25-sonli qarorlariga nisbatan keltirilgan shikoyati qanoatlantirilsin.

2. Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining sudyasi Xudaybergenov Artur Germanovichga nisbatan chiqarilgan Toshkent shahar sudlari sudyalari malaka hay'atining 2025 yil 18 iyundagi 71/5-sonli qarori hamda Sudyalar oliy malaka hay'atining 2025 yil 21 iyuldagi OMH-8 b.m.-25-sonli qarorlari bekor qilinsin va intizomiy ish tugatilsin.

3. Intizomiy ish materiallari Toshkent shahri sudlari sudyalari malaka hay'atiga qaytarilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov